

Musaev Ravshan

Urganch shahar 18-son maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Xorazm vohasi qadimdan etnik migratsiyalar chorrahasida joylashgan hududlardan biri sifatida O‘rta Osiyoda shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va taraqqiyotida juda muhim o‘rin egallagan. Ammo, bu masalani faqat muayyan xronologik doirada, jumladan, arxaik davr doirasida tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. SHu jihatdan olganda mazkur maqolada Xorazm vohasi tarixining eng kam o‘rganilgan sahifalaridan biri bo‘lmish arxaik davr (miloddan avvalgi VII–V asrlar) shaharsozlik madaniyatining shakllanishi mavzusining tarixshunoslik nuqtai – nazaridan o‘rganilishi masalasi yoritilgan. Mazkur muammoni ochib berish jarayonida shaharlarning ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi o‘rnini masalasi ham ilmiy jihatdan tahlil qilingan va xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: S.P. Tolstov, M.G. Vorob’eva, Yu.A. Rapoport, Ye.E. Nerazik, B.I. Vaynberg, V.N. Yagodin, M. Mambetullaev, G. Xodjaniyazov, Q. Sobirov, Ko‘zaliqir, Qal’aliqir, Oybo‘g‘irqal’a, Dingilja, Xumbuztепe, Hazarasp.

Аннотация: Хорезмский оазис, как одна из областей на перекрестке этнических миграций, с незапамятных времен занимал очень важное место в формировании и развитии градостроительной культуры в Центральной Азии. Однако целесообразно будет изучать этот вопрос только в определенных хронологических рамках, в том числе и в рамках архаического периода. В связи с этим в данной статье рассматривается вопрос изучения темы формирования градостроительной культуры архаического периода (VII–V вв. до н.э.), одной из наименее изученных страниц истории Хорезмийского оазиса, с точки зрения историографии. В процессе раскрытия этой проблемы также был научно проанализирован вопрос о роли городов в социально–экономической жизни и сделаны выводы.

Ключевые слова: С.П. Толстов, Б.В. Андрианов, М.Г. Воробьева, Ю.А. Рапорт, О.А. Вишневская, Е.Е. Неразик, Б.И. Вайнберг, Л.М. Левина, Кюзелигыр, Калалигыр, Ойбуғирқала, Дингильджас, Хумбузтепе, Хазарасп.

Annotation: The Khorezm oasis, as one of the areas at the crossroads of ethnic migrations, has occupied a very important place in the formation and development of urban culture in Central Asia since time immemorial. However, it would be advisable to study this issue only within a certain chronological framework, including within the archaic period. In this regard, this article examines the issue of studying the topic of the formation of the urban culture of the archaic period (VII–V centuries BC), one of the least studied pages of the history of the Khorezm oasis, from the point of view of historiography. In the process of revealing this problem, the question of the role of cities in socio-economic life was also scientifically analyzed and conclusions were drawn.

Key words: *S.P.Tolstov, B.V.Andrianov, M.G.Vorobeva, Yu.A.Rapoport, O.A.Vishnevskaya, E.E.Nerazik, B.I.Veinberg, L.M.Levina, Kuzaliqir, Kalaliqir, Oybogirqala, Dingilja, Khumbuztepa, Hazorasp.*

KIRISH (INTRODUCTION). O'zbekistonda shaharsozlik madaniyati shakllanishi va taraqqiyoti tarixi bilan birgalikda aholi tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyati tarixiga oid noyob ma'lumotlar, moddiy va yozma manbalar to'plangan bo'lib, ularni har tomonlama chuqur va izchil yaxlit holda o'rganish O'zbekiston tarixini o'rganish borasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan hamda bu borada hozirgi kungacha ko'plagan tadqiqotlar olib borilgan va tadqiqotlar davom etmoqda. Ammo, shunday bo'lsada, O'zbekistonning turli tarixiy hududlari, shu jumladan, Xorazm vohasidagi ilk shaharlar tarixini qamrab olgan urbanistik jarayonlar to'g'risida mavjud bo'lgan ma'lumotlar yetarli darajada bo'lsa ham, arxaik davr jamiyati mazmunini izohlagan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlar, unga imkon yaratgan turar-joylarning qurilishi, savdo-hunarmandchilik markaziga aylanishi, loy me'morchiligi uslubi, mudofaa inshootlari tarixi hozirgi kungacha maxsus tadqiqot sifatida to'liq o'rganilgan emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Xorazm ilk shaharsozligi tarixiga oid faqat yunon tarixchisi miletlik Gekateyning Xorasmiya shahri haqidagi asaridan boshqa qadimiy yozma manbalar deyarli yo'q.

Umuman olganda bu masala yuzasidan qilingan ilmiy tadqiqotlar nisbatan yetarli darajada bo'lsada, haligacha o'z yechimini topmagan. Zamonaviy tadqiqotchilarning tadqiqotlarida Xorazm vohasida ilk shaharlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti masalasi borasida turli – tuman fikrlar va qarashlar mavjud bo'lib, keng miqyosdagi arxeologik tadqiqotlarni talab qiladi. Mazkur mavzu yuzasidan eng asosiy manbalar hamda Xorazm arxaik davr shaharsozligi tarixi, ilk shaharlar vujudga kelishi va taraqqiyoti masalalari haqida ko'proq to'xtalib o'tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari S.P.Tolstov, B.V.Andrianov, M.G.Vorob'eva, Yu.A.Rapoport, O.A.Vishnevskaya, Ye.E.Nerazik, B.I.Vaynberg, L.M.Levina, V.N. Yagodin, M. Mambetullaev, G. Xodjaniyazov, Ye. Bijanov, Yu.P. Manilov, M. Qdirniyozov, M. Turebekov va Q. Sobirov tadqiqotlari hisoblanadi. Bundan tashqari ba'zi etnotoponomika muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham ilk temir davrida Xorazm vohasiga me'morchilik bilimlariga ega aholi migratsiyasi natijasida hamda bu davrlardagi tashqi munosabatlar ta'sirida ilk shaharlar vujudga kelgan va vohada shaharsozlik an'analarini shakllana boshlagan degan xulosa chiqarishga asoslar bor.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Xorazm vohasi tarixinining arxaik davri boshlang'ich sanasi masalasida hozirgacha aniq to'xtamga kelinmagan.

Mashhur arxeolog va etnograf S.P. Tolstov bu davrni mil. avv. VII asrlar bilan belgilagan bo'lsa[1, B. 92,106,108], aksariyat tadqiqotchilar bu davrni mil. avv. VI–V asrlar bilan chegaralaydilar[2. B.16]. Arxaik davrning boshlang'ich davri Ko'zaliqir, so'nggi bosqichi esa Qal'aliqir 1 materiallariga qarab belgilanadi[3. B.545].

Xorazmning qadimgi davriga oid shaharlarini arxeologik jihatdan o'rganish XX-asrning 30-yillaridan boshlandi. 1937 yildan o'z faoliyatini boshlagan S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik (1945 yildan arxeologiya-etnografik) ekspeditsiyasining ellik yildan ziyod vaqt mobaynida olib borgan ilmiy tadqiqot natijalari qator monografiya, ilmiy to'plam va maqolalarda yoritildi.

Janubiy Orolbo'yi yodgorliklarni o'rganish ishiga 1959 yildan O'z SSR FAning N. Davkaraev nomidagi Qoraqalpog'iston filiali xodimlari ham faol kirishdilar. 70-yillardan boshlab ushbu filial tarixchi-qadimshunoslari tomonidan olib borilgan dala-qidiruv ishlari natijasida Xorazmning arxeologik xaritasiga 30 dan ortiq tarixiy yodgorlik kiritildi. Ulardan 16 tasi yangi ochilgan yodgorliklar edi[4].

Arxaik madaniy qatlamlar Xorazmning ko'plab xududlarida qayd qilingan. Arxeologiyada tarqoq manzilgohlar deb ataluvchi bunday joylar shu davrga oid kanallar bo'yalarida va qator antik shahar-qal'alar atroflarida uchratilgan. O'tgan asrning 60-yillari oxirigacha bo'lgan izlanishlar davomida o'ng sohil Xorazmda 125 ta, so'l sohilda esa 45 ta shunday qishloq manzilgohlari qayd qilingan bo'lsa[5. B.156-166], 70-yillar oxiriga kelib o'ng sohilda 250 ta, so'l sohilda 60 ga yaqin qishloq manzilgohlari aniqlangan[6. B.40]. 90-yillar oxirida topilgan bunday manzilgohlар soni o'ng sohil Xorazmning o'zida 400 ga yetgan[7. B.31-32].

Arxaik qishloq izlari Qo'yqirilganqal'a (mil. avv. V a.), Odamliqal'a (mil. avv. VI–V a.), Ayozqal'a (mil. avv. V a.), Jonbosqal'a (mil. avv. V a.), Toshxirmontepa (mil. avv. VI–V a.) atroflarida ayniqsa ko'plab uchratilgan. Sopol ishlab chiqarish markazlari qoldiqlari esa Bozorqal'a va Odamliqal'a, so'l sohilda Xumbuztepa va CHirmonyob Govurqal'asi atroflarida qayd qilingan.

So'l sohil Xorazmda Ko'zaliqir atroflari va janubiy Dovdon havzasida 34 ta arxaik qishloq va sopollar to'plangan tarqoq manzilgohlar, shimoliy va janubiy Dovdon oralig'ida sug'orish tizimlari va arxaik davrga oid qishloqlar, Manqirqal'adan 6–10 km sharq tomonda 3 ta mustahkamlangan qishloq xarobalari, Uaz vohasida esa arxaik sopollarga boy 11 ta qishloq aniqlangan[8. B.15].

Amudaryoning o'ng va chap sohilida arxaik davrga oid ko'plab qishloq manzilgohlarining qayd qilinishi, ushbu davrga kelib hudud aholisining soni va zichligi ko'payganligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida quyi Amudaryo havzasida ilk urbanistik jarayonlarning boshlanishiga zamin bo'ldi. Irrigatsiya tizimlarining paydo bo'lishi Xorazmda davlat birlashmasining tashkil topishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Arxaik davrning ikkinchi yarmida Xorazm Ahamoniylar tarkibiga kiritiladi. Mil. avv. V asr oxiri – IV asr boshlariga kelib Xorazm Ahamoniylardan mustaqil davlat

maqomini olishi munosabati bilan Quyi Amudaryoning har ikkala sohili bo'ylab urbanistik jarayonlar avj oladi. Xiva, Xazorasp, Katta Oybuyirqal'a, Bozorqal'a va Aqchaxonqal'a kabi yirik shahar tipidagi manzilgohlar paydo bo'ldi[9].

Xorazmning arxaik davr yodgorliklari ikki guruhgaga bo'lib o'rganiladi:

1) Quyi Amudaryo so'l qirg'oq yodgorliklari. 2) Quyi Amudaryo o'ng qirg'oq yodgorliklari.

So'l qirg'oq yodgorliklari ichida eng mashhuri shubhasiz Ko'zaliqir yodgorligi hisoblanadi. CHunki qadimgi Xorazm tsivilizatsiyasi va shaharsozlik madaniyati aynan Ko'zaliqirdan boshlangan.

S.P. Tolstov va uning shogirdlari Xorazm vohasining urbanistik jarayonlari bilan bog'liq arxaik va antik davri arxeologik yodgorliklarini o'rganishga alohida e'tibor bergenlar. Masalan, S.P. Tolstov bir maqolasida Xorazm vohasidagi ilk shaharsozlik madaniyatining noyob yodgorligi Ko'zaliqir haqida material bersa[10], ushbu yodgorlikda tadqiqotlarni davom ettirgan O.A. Vishnevskaya va Yu.A. Rapoportlar shahar haqidagi ma'lumotlarni yanada kengaytirdilar[11].

Xorazm ekspeditsiyasi o'z faoliyatini to'xtatgach, e'lon qilinmagan materiallar asosida Yu.A. Rapoport keyinroq quyi Amudaryo havzasida ilk davlatchilik va urbanistik jarayonlarga oid qator ishlarni e'lon qildi[12].

M.G. Vorob'eva arxaik davrning noyob yodgorligi Dingiljada arxeologik qazishlar olib borib, mil. avv. I ming yillik o'rtalarida Xorazm qishloq jamoalarining moddiy madaniyatiga oid qimmatli materiallar to'pladi[13]. Olima shuningdek, arxeologik materiallar asosida "Katta Xorazm" xususida maxsus maqola e'lon qildi va unda S.P. Tolstov nazariyasini himoya qildi[14].

Qadimgi Xorazm vohasida arxaik davr yodgorliklarda Ye.E. Nerazik keng ko'lamli izlanishlar olib bordi[15]. Olima boy arxeologik materiallarga suyanib, qadimgi Xorazmda urbanistik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan maqolalarni e'lon qildi[16].

B.I. Vaynberg Amudaryoning Sariqamish havzasidagi o'nlab qo'rg'onlarda tadqiqotlar olib borib, ilk temir davrida bu o'lkada "Quyisoy madaniyati" tarkib topganligi, aholining mehnat va harbiy qurollari, turmush tarzi haqida qimmatli materiallar to'pladi va ularni ilmiy tahlil qildi[17]. SHarqiy Orolbo'yi hududlarining arxeologik yodgorliklarini o'rganishda L.M. Levinaning[18], Sariqamishbo'yi del'tasi havzalarini o'rganishda X. Yusupovning[19] ishlari salmoqli bo'ldi.

Xorazmning qadimgi davr tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga V.N. Yagodin, M. Mambetullaev, G. Xodjaniyazov, Ye. Bijanov, Yu.P. Manilov, M. Qdirniyozov, M. Turebekov kabi mahalliy arxeologlar ham o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar. Masalan, V.N. Yagodin qadimgi Xorazmda olib borgan izlanishlarini Amirobod madaniyatining yodgorliklaridan biri Qavat 2 ni o'rganishdan boshladi[20]. M. Mambetullaev qadimgi Xorazmning qator yodgorliklarini o'rganib,

o'lkanning qadimiy tarixi va madaniyatini yangi arxeologik ma'lumotlar bilan to'ldirdi[21,22].

XX asr 30-yillari o'rtalari – 90 yillar mobaynida Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiyasi hodimlari va Qoraqalpog'istonlik arxeologlari Amudaryo o'ng va so'l sarhadlarida aholi turar-joylarida keng qamrovli tarzda olib borgan arxeologik izlanishlari natijasida o'troq aholi turar-joylaridan olingan noyob manbalar miloddan avvalgi VII asr oxiri – milodiy IV asrlarda kechgan jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari taxliliga asoslangan holda kuyidagi masalalarga aniqliklar kiritildi:

V ming yillikdan miloddan avvalgi VII asr oxirigacha ko'psonli suv xavzalari, ko'llar sohillarida geografik-hududiy chegarasi aniq bo'lмаган massivlar hukmronligi ustunlik qilgan;

arxeologik izlanishlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hajmi kichik tipda aholi turar-joylar qurilishi o'rta, katta hajmlı shaharlarga qaraganda ustunlik qilgan.

Miloddan avvalgi VII asr oxiri – VI asr birinchi yarmidan boshlab, to miloddan avvalgi V asr oxirigicha qadimgi Xorazm vohasida katta – kichik shaharlar atroflarida qishloq jamoalarining to'planishi oqibatida o'ziga xos mikrovohalar shakllanganki, eng so'nggi tadqiqotlarga ko'ra ular aynan ilk davlatchilik ko'rinishlaridan biri bo'lgan bo'lishi mumkin. Bu mikrovohalar quyidagilar:

- miloddan avvalgi VII asr oxiri – VI asr birinchi yarmida aholi tomonidan tashkil qilingan mikrovohalar: Toshsaqa zonasida Xumbuztepa, shimoli-sharqiy tomonida Butentov-1, Tunidaryo tizimida Qang'qaqal'a-1, Amudaryo o'rta qismi so'l sohili Qo'shqal'a-1.

- miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmi – V asr oxiri. Xumbuztepa, Butentov-2, Qo'shqal'a-2, Qang'qaqal'a-2, Ding'ilja.

Amudaryoning o'ng va so'l sohili sarhadlari o'zlashtirilishi natijasida hosil bo'lgan madaniy-xo'jalik markazlar tizimida mikrovohalar faoliyat olib borganligi aniqlandi. Oqchadaryo havzasida madaniy-xo'jalik markazlar va mikrovohalar bir-biriga yaqin joylashgan. Mazkur jarayon so'l sohil sarhadlarida (Dovdon irmog'i o'rta qismi bundan mustasno) tarqoq holda kechgan.

Tadqiqotchi Q. Sobirov o'z tadqiqotlarida Quyi Amudaryo va Sariqamishbo'yini sarhadlarida o'troq aholi tomonidan miloddan avvalgi VI-V asrlar qishloq va shaharlarning umumiyligi hajmi va mudofaa tizimi mavjudligiga qarab hamda qo'shni hududlar shaharlari bilan qiyosiy tahlili asosida quyidagi tiplarini ajratishni taklif qiladi:

1-darajali shaharlar: 400-200 ga (Xorazm vohasida uchramaydi);

2-darajali shaharlar: 200-80 ga (Xorazm vohasida uchramaydi);

3-darajali shaharlar: 70-20 ga (Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Bozorqal'a, Xiva).

4-darajali shaharlar: 10-5 ga (Oybug'irqal'a, Hazorasp).

5-Qishloq tipidagi manzillar: 5-0,5 ga (Qo'shqal'a, Ding'ilja, Odoytepa) [23].

Ammo, Xorazm vohasida ilk temir davrda 1-2-darajali shaharlar qurilmagan yoki haligacha arxeologik tadqiqotlar jarayonida bunday yirik shaharlar qoldiqlariga duch kelinmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Xulosa sifatida shuni alohida qayd qilish lozimki, Xorazmning arxaik davr shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi tarixi XX – asrning 30 – yillaridan to 90 – yillarigacha keng tadqiq etilgan bo‘lib, ularda asosan shahar-qal’alarning topografiyasi, mudofaa tizimi, me’morchiligi, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va moddiy madaniyati kabi masalalarga arxeologik nuqtai-nazardan katta e’tibor qaratilgan. Lekin ushbu ma’lumotlar ayrim risola va maqolalarda o‘z aksini topib, o’rganilayotgan davr shaharsozlikmadaniyatini aks ettiruvchi tarixshunoslikka oid maxsus tadqiqot ishi yaratilmagan. Vohaning ichki dehqonchilik markazlarida va davlat sarhadlarida joylashgan shahar-qal’alarning qadimgi Xorazm davlati hayotida tutgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘rnii kabi masalalar yetarli darajada o’rganilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Востлит, 1962.– 324 с.
2. Матякубов Х. Хоразм вохаси бронза ва илк темир даври тарихи (маданият, ижтимоий – иқтисодий ва сиёсий муносабатлар муаммолари: Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: ЎзМУ, 2018. –26 б.
3. Сагдуллаев А., Абдуллаев У. История Хорезма в свете исследований С.П.Толстова // O’zbekiston tarixi. 2007. № 4. – С. 4-10.
4. Юсупов Н.Ю. К истории изучения археологических памятников Хорезмской области // Археология Приаралья. Вып. I. – Ташкент, 1982. – С. 5–12.
5. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Наука, 1969. – 254 с.
6. Воробьева М.Г. Проблема Большого Хорезма» и археология // Этнография и археология Средней Азии.- М.: Наука, 1979. – С.38-42.
7. Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории древнего Хорезма // Приаралье в древности и средневековье. – М., 1998. – С. 28–39.
8. Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма: Автореф. дисс... канд. истор. наук. – Нукус: ККО АН РУз, 2001. – 20 с.
9. Мамбетуллаев М.М. О формировании и развитии городской культуры в Хорезме (VII–II вв. до н.э.) // ТДМК «Приаралье на перекрестке культур» и второго полевого семинара «Археология древнего Ташкырманского оазиса». – Нукус – Бустан – Беруни, 2007. – С. 63–65.

10. Толстов С.П. Городище с жилыми стенами // КСИИМК. Вып. XVII. – М., 1947. – С. 3–8.
11. Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма // ВДИ. – М., 1997. – № 2. – С. 150–173.
12. Рапопорт Ю.А. Хорезм в древности // В низовьях Окса и Яксарта. Образы древнего Приаралья. – М., 2000. – С. 15–68.
13. Воробьева М.Г. Дингильже. Усадьба I тыс. до н.э. в древнем Хорезме // МХЭ. Вып. 9. – М., 1973. – 220 с.
14. Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» // Археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 38–42.
15. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С. 219–227.
16. Неразик Е.Е. Древние города Хорезма и пути их развития // Центральная Азия. Источники. История. Культура. – М.: Изд-во вост. лит., 2005. – С. 543–561.
17. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э.–VIII в. н.э. – М.: Наука, 1999.
18. Левина Л.М. К истории исследований Хорезмийской археолого-этнографической экспедиции в Восточном Приаралье // Приаралье в древности и средневековье. – М., 1998. – С. 42–58.
19. Юсупов Х. Археологические памятники Узбоя и проблемы водного пути из Индии в Каспий // Туркменистан в эпоху раннежелезного века. – Ашхабад, 1984. – С. 87–88.
20. Ягодин В.Н. Поселение Амирабадской культуры Кават 2 // МХЭ. Вып 6. – М., 1963. – С. 130–140.
21. Мамбетуллаев М.М. Хумбузтепе – керамический центр Южного Хорезма // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 1976. – № 3. – С. 77–81.
22. Мамбетуллаев М.М. Городище Большая Айбуйир кала (Раскопки 1976 года) // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 1978. – № 4. – С. 80–88.
23. Собиров К. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан, 2009. – Б. 47-54.